

Yangi tartibdagi kuzatuv kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 04.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-tartibdagi-kuzatuv-kengashining-yig-ilishi-bo-lib-o-td>



Joriy yilning 1-4-oktabr kunlari Toshkent shahrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda "UzAssets" AJ hamkorligida Davlat kompaniyalari kuzatuv kengashlari mustaqil direktorlarining birinchi xalqaro forumi bo'lib o'tdi.

Forumda AQSH, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Germaniya, Hindiston, Polsha, Mavrikiy kabi mamlakatlardan yuqori malakali mutaxassislar 22 ta davlat korxonalarida mustaqil a'zolar sifatida ishlashga taklif etilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur forum doirasida 3-oktabr kuni "O'zkimyosanoat" Ajda Jamiyatning yangi tartibdagi kuzatuv kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda kengashga saylangan yangi mustaqil a'zolar bilan tanishuv, kengash raisini saylash, qo'mitalar tarkibini yangidan tasdiqlash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, chet ellik mustaqil a'zolar kimyo sanoati sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar bilan yaqindan tanishib, kelgusidagi ish rejalari kelishib olindi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati